

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 4 207,1 mln. AQSh dollarini va o'sish sur'ati 106,2 %ni, jumladan 1370,5 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,4 %ni, 2 836,6 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,1 %ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)

	<i>yanvar-sentabr</i>		<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
Tashqi savdo aylanmasi	3 963,3	4 207,1	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	1 835,7	1 835,8	100,0
boshqa davlatlar	2 127,6	2 371,3	111,5
Eksport	1 499,9	1370,5	91,4
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	576,1	585,1	101,6
boshqa davlatlar	923,8	785,4	85,0
Import	2 463,4	2 836,6	115,1
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	1 259,5	1 250,7	99,3
boshqa davlatlar	1 203,9	1 585,9	131,7


Tashqi iqtisodiy faoliyat

Viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, %da

2023-yil yanvar-sentabr



2022-yil yanvar-sentabr



**2023- yil yanvar-sentabr oylarida
viloyat eksport-importi tarkibi**

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>		<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	
Eksport tarkibi	100,0	100,0	91,4
paxta tolasi	0,0	0,0	77,3
oziq-ovqat mahsulotlari	10,4	12,1	105,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5,1	5,6	100,8
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,2	0,3	159,6
qora va rangli metallar	55,4	51,3	84,6
mashina va uskunalar	3,3	3,0	84,8
xizmatlar	0,3	0,3	89,7
boshqalar	25,3	27,4	98,8
Import tarkibi	100,0	100,0	116,7
oziq-ovqat mahsulotlari	19,3	22,7	98,0
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	11,9	12,2	111,6
energiya manbalari va neft mahsulotlari	7,2	3,5	2,4 m.
qora va rangli metallar	9,9	11,4	100,0
mashina va uskunalar	33,1	25,1	151,9
xizmatlar	0,1	0,2	52,7
boshqalar	18,5	24,9	85,9



Tashqi iqtisodiy faoliyat

Eksport tarkibida tovarlar 99,7 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (51,3 %), boshqa turdagi tovarlar (27,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (12,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,6 %), mashina va uskunalar (3,0 %) shuningdek, xizmatlar (0,3 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(mln. AQSh dollari)

2022- yil
yanvar-sentabr




2023- yil
yanvar-sentabr



Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (33,1%), oziq-ovqat mahsulotlari (19,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,9 %) hamda boshqa mahsulotlar (18,6 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(mln. AQSh dollari)



**2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**


	<i>Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>
Xitoy	25,0	126,6
Rossiya Federatsiyasi	21,2	97,9
Qozog'iston	15,6	97,8
Turkiya	8,3	61,0
Braziliya	5,0	102,0
Italiya	3,1	2,3 m.
Germaniya	2,1	184,7
Singapur	2,0	5,0 m.
Belarus	1,9	133,8
Qirg'iz Respublikasi	1,8	158,2
Tojikiston	1,7	92,1
Afg'oniston	0,9	79,8
Vyetnam	0,9	4,6 m.
Koreya Respublikasi	0,8	100,9
AQSH	0,7	5,9 m.
Belgiya	0,7	3,6 m.
Litva	0,7	115,4
Eron Respublikasi	0,6	103,6

Tashqi iqtisodiy faoliyat


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Italiya va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 80,2 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Italiya va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da

Eksport




Import



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,6 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 %ga ko‘paydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 56,4 %ni tashkil qildi (2022- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,7 %ga teng bo‘lgan).

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining
tashqi savdo aylanmasi**
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


2023- yil yanvar-sentabr oylarida jami 175,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 99,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 109,6 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 114,6 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 49,7 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 46,4 %ga ko'paygan.

Shuningdek, 32,2 ming tonna meva va rezavorlar 30,7 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,4 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari




Meva va
rezavorlar
32,2 ming
tonna
30,7 mln.
AQSH dollari



Uzum
17,4 ming
tonna
14,7 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar
0,3 ming
tonna
0,2 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar
114,6 ming
tonna
49,7 mln.
AQSH dollari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 80,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 5,9 %ni tashkil etdi.